



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 206 sahifa,
16-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	10
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining boshqaruv madaniyati	15
<i>Xurramov Anvar Vafqulovich</i>	
5–7 yoshli bolalar jismoniy rivojlanishida futbol o'yin elementlarining pedagogik ahamiyati	19
<i>Olim Ziyoyev Toshpulatovich</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari.....	23
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, G'ulomova Durdona Shovkat qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	26
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, Olimjonova Humora</i>	
Algebra va funksiya: SAT matematikasining asosi	30
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Psixologik savodxonlikning psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashdagi nazariy va amaliy asoslari	34
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda pedagogik odobni rivojlantirish muammosi	40
<i>Fayzullayeva Feruza Aktamjon qizi</i>	
Yosh oilalarning mustahkamligiga zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishning ta'siri	44
<i>Kushakova Nargiza Islambaevna</i>	
Strategic Educational Management: Methods for Improving Teaching and Learning Outcomes	47
<i>Majitova Munisa Oybek qizi</i>	
Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	51
<i>Normurodova Qunduz Tursun qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish	54
<i>Nurmaxmatov Lutfulla Abduxomid o'g'li</i>	
Savod o'rgatish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	58
<i>Po'latova Sitora Olimjonovna</i>	
Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmlari	62
<i>Rahmonov Amirshoh Abdumuxtorovich</i>	
Bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish.....	66
<i>Shomurotova Sh. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodika asoslari	70
<i>Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	73
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirishda art-pedagogik texnologiyalar .	77
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
O'quvchilarning mustaqil fikrlash samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni.....	81
<i>Zikriyoyeva Feruza Sadullo qizi</i>	
Обучение основам ультразвуковой диагностики с использованием метода “Каждый учит каждого” ...	85
<i>Набиев Абдулло Абдувохидович</i>	
To'lepbergen Qayipbergenov asarlarida komil insonni tarbiyalash masalalari	88
<i>Xabibnazarova Saiyra Baxitbayevna</i>	



Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy fazilatlarini shakllantirish	91
Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi	
Ekologik muammoli vaziyatlar orqali kimyo fanida kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasi	96
Ibodullayeva M. I., Dinnazarova F. S.	
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'limni tashkil etish metodikasi	101
Saydullayev Zafar Erkinovich	
Talabalarni milliy hunarmandchilik vositasida samogen tarbiyalashda tarixiylik tamoyili	104
Allanov Shuxrat Qilichovich	
"Harry Potter" asarining o'zbekcha tarjimasida stilistik vositalarni qayta yaratish masalalari	108
Fayziyev Baxodir Baxshilloevich	
Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirishning integratsiyalashgan texnologiyalaridan foydalanish	112
Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Nurmatova Gulchexra Baxadirovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari	116
Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash	119
Eshonqulova Ma'suda Habibovna	
Yosh oilalarda nikoh barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	123
Islomova Ozoda Isomiddin qizi	
Aqliy rivojlanishida orqada qolgan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish metodologiyasi	127
Abdullayeva Maftuna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz psixologik muhit yaratishning pedagogik ahamiyati	131
Turayeva Gulchexra Urayimovna, Ziyaeva Umida Xolmat qizi	
STEAM asosida kollaborativ ta'lim muhitida metakompetensiyalarni rivojlantirish	135
Axmadova Malika	
Yosh sportchilarni sportga yo'naltirish va sportchilarni tanlash muammolari (futbol sport turi misolida)	139
Xotamov Jaloliddin Xusniddin o'g'li	
Biologiyada amaliy tajribalar o'tkazishning zamonaviy virtual yechimlari	143
Mirzayeva Nodira Abduxamidovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati	146
D. P. Xodiyeva, M. Sh. To'rayeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish metodikasi (texnologiya darslari misolida)	150
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Jurayeva Ozoda Ortiq qizi	
Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'rgatishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish	154
G'. Yu. Eshmirzayev	
O'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda kimyo ta'limining o'rni va o'ziga xos jihatlari	157
Kamolova Nargiza Ibragimovna	
Bilingvizm (ikki tillilik) sharoitida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	161
Mapruza Embergenova	
Zamonaviy jamiyatda gender sotsializatsiyasi va psixologik jins xususiyatlari: maskulinlik, femininlik va androginlikning empirik tahlili	167
Nasrullayeva Asolat Abdumalik qizi	
Bo'lajak muhandislarda chiziqli tenglamalar sistemalari va ularning amaliy tatbiqlarini o'qitish haqida	171
Qushmurotov Umurbek Ibadillayevich	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijalari	177
Raximova Nigora Atakulovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlash orqali nutqiy qobiliyatini rivojlantirish ..	180
Xo'jayeva Durdonaxon Maqsud qizi, Rustamova Zulfiya Xolmirzayevna	
Pul qadriyatining o'smirlik davrida shakllanishiga ta'sir etuvchi milliy, ijtimoiy va psixologik omillar: iqtisodiy ijtimoiylashuvning psixodinamik yondashuvda tahlili	184
Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna	

O'smirlarda koping xulq-atvor shakllanishida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari	189
Yarmatova Sanobar Jo'rayevna	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol metodlar	193
Norquvatova Diyora Davron qizi	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	197
Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna	
Системно-функциональное моделирование и эмпирический анализ нравственно-волевой детерминации в профессиональной деятельности военнослужащих	201
Зохиров Нодирбек Улугбекович	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI (TEKNOLOGIYA DARSLARI MISOLIDA)

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim pedagogika kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jurayeva Ozoda Ortiq qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistri

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilinadi. Xususan, texnologiya darslari jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va usullar yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, texnologiya darslarida ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyihaviy faoliyat hamda amaliy mashg'ulotlardan foydalanish o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan. Shuningdek, kreativlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar, pedagogik shart-sharoitlar va amaliy tavsiyalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, boshlang'ich ta'lim, texnologiya darsi, ijodiy fikrlash, innovatsion metodlar, pedagogik texnologiya, o'quv faoliyati, kreativ kompetensiya.

Abstract: The pedagogical and methodological foundations of developing creativity in primary school students are analyzed. In particular, the methods and approaches that contribute to the development of students' creative thinking in technology lessons are highlighted. The results of the study indicate that the use of creative tasks, problem-based situations, project-based activities, and practical exercises in technology lessons plays a significant role in enhancing students' creative abilities. In addition, effective methods, pedagogical conditions, and practical recommendations aimed at fostering creativity are presented.

Key words: creativity, primary education, technology lesson, creative thinking, innovative methods, pedagogical technology, learning activity, creative competence.

Аннотация: Рассматриваются педагогические и методические основы формирования креативности у учащихся начальных классов. В частности, освещаются методы и приёмы, способствующие развитию творческого мышления учащихся в процессе уроков технологии. По результатам исследования установлено, что использование творческих заданий, проблемных ситуаций, проектной деятельности и практических занятий на уроках технологии играет важную роль в развитии креативных способностей учащихся. Также представлены эффективные методы, педагогические условия и практические рекомендации, направленные на формирование креативности у учащихся.

Ключевые слова: креативность, начальное образование, урок технологии, творческое мышление, инновационные методы, педагогическая технология, учебная деятельность, креативная компетенция.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – ijodiy fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan va yangicha g'oyalarni ilgari sura oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning kreativligini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qabul qilingan ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda davlat ta'lim standartlarida o'quvchilarning kreativ kompetensiyalarini shakllantirish muhim yo'nalish sifatida belgilangan.



Kreativlik – bu shaxsning yangi g'oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yechim topish, ijodiy fikrlash va yangilik yaratishga bo'lgan qobiliyatidir. Zamonaviy ta'lim tizimida kreativlik o'quvchilarning muhim kompetensiyalaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf davri bolalarning tasavvuri, ijodiy fikrlashi va qiziqishlari faol rivojlanadigan davr hisoblanadi. Shu sababli ushbu bosqichda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligini rivojlantirishda texnologiya darslari alohida ahamiyatga ega. Chunki ushbu fan o'quvchilarning amaliy faoliyati, tasavvuri, fantaziyasi hamda mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Texnologiya darslarida turli materiallar bilan ishlash, yangi buyumlar yaratish, modellashtirish hamda loyihaviy faoliyat orqali o'quvchilar ijodiy fikrlashga o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni rivojlantirishda texnologiya darslari alohida ahamiyatga ega. Texnologiya darslari o'quvchilarning amaliy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan fanlardan biri bo'lib, unda o'quvchilar turli materiallar bilan ishlash, buyumlar yaratish, ijodiy g'oyalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Texnologiya darslari orqali o'quvchilarning tasavvuri kengayadi, ular turli g'oyalarni sinab ko'rish orqali ijodiy fikrlashni o'rganadilar. Masalan, qog'oz, karton, mato, plastilin yoki tabiiy materiallardan turli buyumlar yasash jarayonida o'quvchilar yangi g'oyalarni o'ylab topadilar, mustaqil ishlashga harakat qiladilar va o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etadilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish muammosi pedagogika fanida muhim yo'nalishlardan biri sifatida o'rganilgan.

N.N. Azizxo'jayeva o'z tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish mumkinligini asoslab beradi.

O'. Tolipov va M. Usmonboyeva esa pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarini yoritib, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash va kreativ qobiliyatlarini shakllantirishga e'tibor qaratadi. Ularning fikricha, ta'lim jarayonining samaradorligi o'quvchilarning faol ishtiroki va ijodiy yondashuviga bevosita bog'liq.

Kreativlik tushunchasining psixologik asoslari J. Guilford tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, u inson intellektining tarkibiy qismi sifatida divergent fikrlashni alohida ajratib ko'rsatadi.

E.P. Torrance esa kreativlikni rivojlantirish metodlarini ishlab chiqib, ta'lim jarayonida ijodiy topshiriqlarning ahamiyatini asoslaydi. Ularning ilmiy qarashlari boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Hasanboyeva O., To'raqulov X. va Shodiyeva N. tomonidan 2020-yil chop etilgan "Pedagogika" asarida o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi ta'limning muhim vazifasi sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda innovatsion texnologiyalarning o'rni alohida ta'kidlanadi.

U. Begimqulov ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning faolligi va ijodiy fikrlashini oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

K. Rasulov va M. Abdullayeva 2024-yilgi tadqiqotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning kreativ kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita ekanligini asoslaydi.

Shuningdek, A. Khan 2020-yilda interfaol o'qitish usullari orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mumkinligini ilmiy jihatdan yoritadi.

Ushbu ilmiy qarashlar texnologiya darslari jarayonida kreativlikni shakllantirish metodikasini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish jarayoni pedagogika, psixologiya hamda metodika fanlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedagogik kuzatuv
- tajriba-sinov ishlari
- tahlil va taqqoslash
- pedagogik tajribani umumlashtirish

Mazkur metodlar yordamida texnologiya darslarida kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali usullar aniqlab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Texnologiya darslarida kreativlikni shakllantirish uchun turli pedagogik metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Ulardan biri muammoli ta'lim metodidir. Bu metod orqali o'quvchilarga muammoli vaziyat beriladi va ular ushbu vaziyatni hal qilish uchun mustaqil fikr yuritadilar. Bunday vazifalar o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi hamda ularni yangi g'oyalar topishga undaydi. Shuningdek, loyihaviy faoliyat ham kreativlikni rivojlantirishda samarali usullardan biridir. O'quvchilar kichik loyihalar ustida ishlash jarayonida o'z g'oyalari amaliy faoliyatda sinab ko'radilar. Masalan, turli bezak buyumlari, o'yinchoqlar yoki tabiat materiallaridan kompozitsiyalar tayyorlash orqali o'quvchilar ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadilar.

Texnologiya darslarida "aqliy hujum" metodidan foydalanish ham o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantiradi. Bu metod orqali o'quvchilar biror vazifa yoki muammoni hal qilish uchun turli g'oyalarni taklif qiladilar. Har bir o'quvchi o'z fikrini erkin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada o'quvchilar o'zaro fikr almashadilar va yangi g'oyalar paydo bo'ladi. Bundan tashqari, o'yin metodlari ham boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda samarali hisoblanadi. Turli ijodiy o'yinlar orqali o'quvchilar o'z fantaziyasini namoyon etadilar va yangi buyumlar yaratishga harakat qiladilar.

Kreativlikni rivojlantirish jarayonida o'qituvchining roli ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilishi, ularning qiziqishini oshirishi va erkin fikr bildirishlari uchun sharoit yaratishi zarur. Har bir o'quvchining g'oyasini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va ularni mustaqil ishlashga yo'naltirish o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish orqali darslarni qiziqarli va samarali tashkil etishi mumkin.

Texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativligini rivojlantirish quyidagi metodlar orqali amalga oshiriladi:

1. **Ijodiy topshiriqlar berish** – o'quvchilarga mustaqil ravishda yangi buyum yoki model yaratish vazifasi beriladi.
2. **Muammoli vaziyat yaratish** – o'quvchilarga muammoli topshiriqlar berilib, ularni mustaqil yechim topishga undash.
3. **Loyihaviy faoliyat** – o'quvchilar guruh yoki yakka tartibda loyiha asosida ish olib boradilar.
4. **Amaliy mashg'ulotlar** – turli materiallar bilan ishlash orqali ijodiy faoliyat tashkil etiladi.

O'tkazilgan pedagogik tajribalar natijasida texnologiya darslarida kreativlikni rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ekanligi aniqlandi:

- o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish
- ijodiy muhit yaratish
- innovatsion metodlardan foydalanish
- o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olish

Tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, texnologiya darslarida ijodiy topshiriqlar va loyihaviy faoliyatdan foydalanish o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish jarayonida ta'limning mazmuni va tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va ijodiy faoliyatga jalb qilish orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, texnologiya darslarida o'quvchilarning qo'l mehnati orqali turli buyumlar yasashi, yangi shakllar va g'oyalarni sinab ko'rishi ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Amaliy faoliyat davomida o'quvchilar nafaqat buyum yaratishni, balki muammoni hal qilish, rejalashtirish va natijani baholash kabi ko'nikmalarni ham egallaydilar.

Texnologiya darslarida kreativlikni rivojlantirish uchun o'quvchilarga erkin ijodiy topshiriqlar berish muhim hisoblanadi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarga o'z tasavvurlariga tayanib yangi g'oyalar yaratish imkonini beradi. Masalan, "tabiiy materiallardan kompozitsiya yaratish", "qog'ozdan foydali buyum yasash", "eski buyumlardan yangi buyum yaratish" kabi topshiriqlar o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'quvchilar guruh bo'lib ishlash jarayonida o'zaro fikr almashadilar, bir-birining g'oyalari to'ldiradilar va yangi yechimlar topishga harakat qiladilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha usullari, ijodiy topshiriqlar va o'yin texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Bunday metodlar orqali o'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadilar va o'z fikrlarini erkin ifoda etishga o'rganadilar. Natijada ularning kreativ fikrlash qobiliyati shakllanib boradi. Shuningdek, texnologiya darslarida turli xil materiallardan foydalanish ham kreativlikni rivojlantirishga yordam beradi. Qog'oz, karton, plastilin, mato, ip, yog'och,



tabiiy materiallar kabi vositalardan foydalanish o'quvchilarga keng imkoniyat yaratadi. Har bir material bilan ishlash jarayonida o'quvchilar yangi usullarni o'rganadilar, turli shakllar yaratadilar va o'z tasavvurlarini amalda namoyon etadilar. Bu esa o'quvchilarning fantaziyasi va ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi.

Kreativlikni rivojlantirish jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ham muhim hisoblanadi. Mustaqil faoliyat o'quvchilarning mas'uliyatini oshiradi, ularni o'z g'oyalarini amalga oshirishga undaydi. O'qituvchi esa bu jarayonda yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi rolini bajaradi. O'quvchilar tomonidan yaratilgan ijodiy ishlarni baholash jarayonida ham ularning har bir g'oyasi qadrlanishi, rag'batlantirilishi zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish kelajakda ularning shaxs sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikrlashga ega bo'lgan o'quvchilar yangi bilimlarni oson o'zlashtiradilar, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladilar hamda jamiyatda faol va tashabbuskor shaxs sifatida shakllanadilar. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida, ayniqsa, texnologiya darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Shuningdek, o'quvchilar turli buyumlar yaratish jarayonida muammoli vaziyatlarga duch keladilar va ularni mustaqil ravishda hal qilishga harakat qiladilar. Bu esa ularning kreativ fikrlashini yanada rivojlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Texnologiya darslari ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, texnologiya darslarida ijodiy topshiriqlar, loyihaviy faoliyat, muammoli vaziyatlar hamda amaliy mashg'ulotlardan foydalanish o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kelgusida texnologiya darslarining mazmunini boyitish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni rivojlantirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini rivojlantirishga oid qarorlari.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.
4. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti.
5. Begimqulov U. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar.
6. Torrance E.P. Creativity in Education.
7. Guilford J. The Nature of Human Intelligence.
8. Hasanboyeva O., To'raqulov X., Shodiyeva N. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020-yil.
9. Rasulov K., Abdullayeva M. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2024-yil.
10. Khan A. Interactive Learning Techniques in the Classroom. – New York: Routledge, 2020-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.